Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK. 521.3

TA'LIM JARAYONIDA PARSIAL O'QUV DASTURLARINI LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA PEDAGOGIK TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Mustaqil izlanuvchi
E-mail: saydillayevamehrinaz@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyatning har jabhasi tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim paradigmalarining o'zgarishiga, buning natijasida esa ta'lim tizimi, xususan, umumiy ta'lim maqsadlarining mazmun va miqdor jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyat uchun barcha sohalarda har tomonlama rivojlangan, mantiqiy tafakkurga ega, intellektual salohiyatli, refleksiv-tahliliy va ijodiy-kreativ yondashuv joriy eta oladigan, yuksak kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxslar, mutaxassis-kadrlar talab etiladi. Bu talablarga javob beradigan maqsadlarga erishish uchun o'qitishning an'anaviy shakllari, "bilim berish", "o'quv materiali bo'yicha maksimum ma'lumot va axborot berish"ga qaratilgan metodlar hamda texnologiyalar to'g'ri ma'noda yaroqsiz bo'lib qoldi. Maqolada ta'limning barcha bo'g'inlarida umumta'lim, kasbiy va maxsus fanlar o'rtasidagi integrativ bog'liqlikni ta'minlash hamda ta'lim va tarbiya jarayonlarida o'zaro to'ldiruvchanlik xususiyatlarini takomillashtirish orqali ta'lim oluvchining ta'limiy, kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy-kreativ potensialini yuzaga chiqarish kabi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun pedagog-kadrlar va mutaxassislarni o'qitishning eng zamonaviy metodlari, yangidan yangi texnologiyalari, takomillashtirilgan metodikalari, shakl va vositalari va o'qitish amaliyotiga pedagogik innovatsiyalar, ta'lim dasturlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, ta'lim dasturlari, pedagog, jamiyat, o'qituvchi faoliyati, ijtimoiy muhit, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПАРЦИАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ПРОГРАММ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: стремительное развитие каждого аспекта общества ведет к изменению парадигм образования, в результате чего система образования, в частности общеобразовательные цели, обновляется в содержательном и количественном плане. Для современного общества требуются люди, специалисты-кадры, обладающие высокими профессиональными компетенциями, всесторонне развитые во всех сферах, обладающие логическим мышлением, интеллектуальным потенциалом, умеющие внедрять рефлексивно-аналитический и креативно-творческий подходы. Для достижения целей, отвечающих этим требованиям, традиционные формы обучения, методы и технологии, направленные на

“передачу знаний”, “предоставление максимальной информации и информации об учебном материале”, в прямом смысле стали непригодными.

В статье рассматриваются современные методы обучения педагогических кадров и специалистов для успешного выполнения таких задач, как развитие образовательных, профессиональных и личностных качеств обучающегося, формирование его научного мировоззрения, раскрытие творческо-творческого потенциала путем обеспечения интегративных связей между общеобразовательными, профессиональными и специальными дисциплинами во всех звеньях образования и совершенствования свойств взаимодополняемости в образовательном и воспитательном процессах. новые технологии, усовершенствованные методики, формы и средства, а также педагогические инновации в педагогической практике, речь идет о образовательных программах.

Ключевые слова: образование, процесс, образовательные программы, педагог, общество, деятельность учителя, социальная среда, педагогическое мастерство, педагогические способности.

IMPROVING TEACHER EDUCATION BASED ON THE DESIGN OF PARTIAL CURRICULA IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: The rapid development of every aspect of society leads to a change in educational paradigms, as a result of which the education system, in particular general education goals, is updated in terms of content and quantity. Modern society requires people, specialists, personnel with high professional competencies, comprehensively developed in all areas, with logical thinking, intellectual potential, able to implement reflective, analytical and creative approaches. In order to achieve goals that meet these requirements, traditional forms of education, methods and technologies aimed at “transferring knowledge”, “providing maximum information and information about educational material”, have literally become unsuitable. The article discusses modern methods of teaching teaching staff and specialists for the successful implementation of such tasks as the development of educational, professional, and personal qualities of the student, the formation of their scientific worldview, and the disclosure of their creative potential through the provision of integrative connections between general educational, professional, and special disciplines at all levels of education and the improvement of the properties of complementarity in the educational and upbringing processes. new technologies, improved methods, forms, and means, as well as pedagogical innovations in pedagogical practice, refer to educational programs.

Keywords: education, process, educational programs, teacher, society, teacher's activities, social environment, pedagogical skills, and pedagogical abilities.

KIRISH Bugungi kunda ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlari amalga oshiriladigan ta’lim muassasalarida didaktik materiallar hamda innovatsion texnologiyalardan ta’limning yangi (xususan, maktabgacha ta’lim, o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi, davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi, o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘bat-lantirilishi, ta’lim faoliyati sohasidagi

ochiqlik va shaffoflik, insonparvarlik, erkinlik, sog‘liqni saqlash, uzviylik, uzluksizlik va shu kabi boshqa) tamoyillariga amal qilingan holda foydalanib, ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz miqyosida ta’lim tizimining muhim o‘rniga urg‘u beruvchi, jamiyat taraqqiyotini zarur darajaga ko‘tarish uchun aynan oliy ma’lumotli, yuksak malakali pedagog-kadrlarni tayyorlashni o‘z ichiga oluvchi pedagogik ta’limni zamon talablariga mos tarzda rivojlantirishni nazarda tutuvchi fikrlar mamlakatimiz oliy minbaridan turib aytilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va butun O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to‘g‘ri yo‘lidir” **[1; 3-b],** deya ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu ijtimoiy jarayonlarda, kasbiy muloqot saviyasini oshirishga sharoitlar yaratadi. [**1; 3-b]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2011-yil, 20-maydagi PQ 1533-son “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil, 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur masalaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi**. [1; 6-b]**

Biroq mamlakatimiz bo‘ylab ta’lim sohasidagi islohotlar keng miqyosda olib borilayotganligiga qaramasdan, uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarda hamon dolzarb muammolar to‘liq hal etilmagan. Bu muammolar O‘zbekiston Respublikasining tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator me’yoriy-hujjatlarida o‘z aksini topgan. Binobarin Respublikamiz hududlarida yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Jumladan, oliy ta’limda fanlarni o‘qitishda mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyun, 2018-yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 qarorida bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga

oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta'minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar borligi ta'kidlangan. Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatiga erishishda bir qancha muammolar mavjudligini aytish mumkin.

-zamonaviy o‘quv adabiyotlarining yetishmasligi;

- fanlarning yo‘nalishlarga mos emasligi yoki mos bo‘lsa ham fanlarning ko‘pligini;

Raqamli texnologiyalar taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish zarurati oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining yetarli joriy etilmayotganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning mavjud yangiliklari o‘quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali talabalarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa, o‘z navbatida, talabalarda ko‘plab fundamental bilimlarni mustahkam shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo‘limlari va sohalarining shakllanishini ta'minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida hukmron bo‘lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallashtirishni talab etadi. Ta'lim yo‘nalishlari «boshidan kechirayotgan» bunday differensiyalashish va integratsiya jarayonlarining o‘qitishda o‘z aksini yetarli darajada topa olmayotgani ham bugungi oliy ta'lim tizimida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ta'lim mazmuni va to‘plangan boy ilmiy axborotlarning unda aks etishi orasida uzilish vujudga kelmoqda. Shu sababdan o‘qitishni va o‘quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillarini qayta qarab chiqish zarur. Bunday muammolarni bartaraf etishda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqilishi va mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlarni qisqartirish masalalarini yana bir bor zarur deb bilaman.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil, 10-fevraldagi “Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 20-son qaroriga asosan tanlov orqali amalga oshirilish yo‘lga qo‘yilgan. O‘qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish uchun raqobat mavjudligi bu ta'lim sifatini o‘zgarishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e'tibor qilgan holda differensiyalangan bo‘lishi zarur.

Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, ular talabalarga tayyor bilimlarni o‘zlashtirishigagina yordam berib qolmasdan, ayni paytda, ularda bilimlarni turli manbalardan mustaqil ravishda o‘zlashtirish, shaxsiy nuqtai

nazarning shakllanishi, uni asoslashi, erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlariga ham vosita bo‘lishi lozim. Bunday o‘qitishni rivojlanuvchi ham deyish mumkin.

Shakl va mazmunning rang-barangligi talabaning qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topishi zarur. Ko‘p sathli o‘qitish mazkur muammoning yechimi bo‘la oladi deyish mumkin. Hozirga paytdagi o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi talabadan kundalik fanlar majmuasi bilan ham, ular bo‘yicha beriladigan topshiriqlar majmuasi bilan hisoblashishni talab qiladi. **[2; 214-b]**

Texnologik taraqqiyot talabalarning moslashish davrini murakkablashtirdi. Shunday zamon keldiki, har qanday mutaxassis, xoh u huquqshunos, xoh iqtisodchi, xoh sotsiolog, xoh jurnalist bo‘lsin, axborot texnologiyalarini (AT) o‘zlashtirishi kerak, bularsiz mutaxassis axborot oqimiga dosh bera olmaydi. Bu talab texnologiyani rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

- birinchidan, oliy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta’lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotganligi;

- ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi;

- uchinchidan, oliy ta’lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi;

- to‘rtinchidan, iqtidorli yoshlarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda muammolarning mavjudligi;

- beshinchidan, oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilmaganligi;

- oltinchidan, oliy ta’lim muassasalarida korrupsiya holatlarining saqlanib qolishi;

- yettinchidan, oliy ta’lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o‘zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligining sezilmayotganligi;

- sakkizinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta’lim muassasalarining faol ishtirokining yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- to‘qqizinchidan, oliy ta’lim muassasalari innovatsion va texnologik g‘oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmaganligi, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha taklif kiritish borasida professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash, shuningdek, so‘nggi yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Talabalarga bilim berishning ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda Prezident SH.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi

ma'ruzasida: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdil va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga, intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" **[1; 12-b]** degan so'zlarini ta'kidlash o'rinlidir.

Agar jamiyat ma'rifatli bo'lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug'ligini anglatadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashi ta'lim sifati o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda dars davomida pedagoglar yangidan yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashmoqda. Bu esa ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonida bilimlarni puxta egallashlariga, ko'nikma va malakalarining oshishiga juda katta yordam beradi. Pedagogik texnologiya ilmiy konsepsiyaga asoslangan maqsadni belgilash va unga erishishda ijtimoiy, didaktik, ruhiy-pedagogik, falsafiy nazariyaga suyangan vazifa, faoliyat, natija yaxlitligi, muvaffaqiyatini ta'minlaydigan, ta'lim - tarbiyaning loyihalangan jarayoni, tamoyillari metodlari, vositalarining o'zaro hamkorlikdagi birligidir.

Ta'limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustuvorligini ta'minlash;

- ta'lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;

- ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;

- ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

O'qitish nazariyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir- biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalariga yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu o'rinda, uzluksiz ta'limni yaxlit tizim sifatida qabul qilib, har bir bo'g'in bu tizimning komponentlari ekanligiga, mazkur komponentlar o'rtasida o'zaro bir-birini rivojlantiruvchi xususiyatlar mavjud bo'lishiga asoslangan tizimli yondashuvning ahamiyatiga urg'u bermoqdamiz. Aytish lozimki, agar biz uzluksiz ta'limni yaxlit tizim holida qaraydigan bo'lsak, u holda aynan pedagogik ta'limning muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi, binobarin, ta'limning barcha bo'g'inlarini rivojlantirishda pedagogik ta'lim hal qiluvchi vosita vazifasini o'taydi.

Mazkur omillar shaxsni rivojlantirishning boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim, shuningdek, oliy ta'lim bosqichlarida o'quv-tarbiya va kasbga tayyorlash vazifalarining to'laqonli bajarilishiga to'sqinlik qiladi, binobarin, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bir qator muammolarning paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi. Bu muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

-amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan;

-talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;

-tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi;

-iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas.

Respublikamizdagi uzluksiz ta'lim tizimining uchta muhim bo'g'iniga xos bo'lgan muammolar va kamchiliklarning

mazmunan o‘xshashligi barcha bo‘g‘indagi pedagogik jarayonlarni tegishli me'yorlar asosida tashkil etishga qodir, ilg‘or pedagogik innovatsiyalarni ta’lim amaliyotiga samarali joriy eta oladigan o‘qituvchi pedagoglarni tayyorlash tizimini, ya’ni pedagogik ta’limni takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada “quyidan – yuqoriga”, “oddiydan – murakkablikka” tartibi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan to‘g‘ridir. Mazkur masala, ya’ni mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘quv dasturlari va darsliklarni tubdan yangilash masalasi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning barcha ma’ruzalari va suhbatlarida alohida vazifa sifatida ta’kidlab o‘tiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Oliy Majlisiga yo‘llagan 2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomasida “o‘quv dasturlarini xalqaro standartlar, zamonaviy mezonlar talablar asosida yangilash” vazifasiga to‘xtalib o‘tiladi. Mazkur muammo Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasida qat'iy vazifa sifatida belgilab beriladi: mamlakatimiz Prezidenti uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida “ta’lim-tarbiya sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, o‘qituvchi va pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim”ligini alohida ta’kidlab, shu orqali “bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish” zarurligiga urg‘u beradi. Mazkur hujjatda “ilg‘or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan milliy dasturlar” ishlab chiqilishi lozimligi eng ustuvor vazifalar sifatida qo‘yiladi **[2; 28-b].**

Pedagogik ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, buning uchun esa, avvalo, o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish orqali uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya sifatini tubdan yaxshilashga erishish eng maqbul yo‘l ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorida ham urg‘u beriladi. Mazkur tarixiy hujjatda “pedagog kasbiga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish, pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me'yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish kabi vazifalar pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Pedagogik ta’limni takomillashtirish masalasiga tizimli yondashuv nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, yuqoridagi. mulohazalar, davlat miqyosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va ta’lim o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjud: ta’lim rivojlanishi natijasida ilm-fan taraqqiy topadi va jamiyatning ravnaq topishi uchun “yetakchi kuch” vazifasini bajaradi. O‘z navbatida mazkur barqaror uchlik tizim biri boshqasining oldiga talablar qo‘yadi: jamiyatda shakllangan talablar ilm-fandan zamonaviy kashfiyotlar, ilg‘or texnologiyalar talab qiladi, ilm-fan sohalari bu talabga javob berish uchun ta’lim tizimidagi taraqqiyotga tayanadi.

“O‘quv dasturi” tushunchasiga olimlar, tadqiqotchilar va qomusiy manbalarda berilgan ta’riflar bir-biridan keskin farq qilmaydi: xususan, “Pedagogik atamalar lug‘ati”da o‘quv dasturining o‘quv fani mazmunini qisqacha izohlovchi hujjat ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi**. [2;74-b].**

O‘zbekiston Respublikasining Oliy kasbiy ta’lim davlat ta’lim standartida biz mazkur tushunchaga berilgan mufassalroq

ta'rifni o'qishimiz mumkin, ya'ni o'quv dasturi – ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat hisoblanadi. **[1.18-b].**

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida mazkur tushunchaning yanada to'laroq ta'rifi keltirib o'tiladi. Unga ko'ra, o'quv dasturi – ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat **[1. 18-b].** Shuningdek, mazkur qomusiy manbada o'quv dasturining tarkibiy tuzilishi, maqsadi, yaratilishi (tuzilish) usullari va boshqa jihatlariga ham to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim dasturini ishlab chiqish orqali o'qituvchining o'z ijodiy-kreativligini namoyon qilishi nazarda tutiladi: ya'ni mazkur qonunning 45-moddasida pedagogik xodimlarning huquqlarini keltirib o'tish asnosida ularda "o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish" huquqiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan asosiy o'quv dasturlar davlat ta'lim standartlari asosidagi dasturlar ya'ni rasmiy tasdiqlangan va umumiy ta'lim muassasalarida majburiy qo'llaniladigan dasturlar. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan dasturlar asosan uch guruhga bo'linadi. Bular quyidagilar:

-Maktab o'quv dasturlari

-Oliy ta'lim dasturlari

-Kasb-hunar ta'limi dasturlari

Har bir o'quv dasturi o'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va ta'lim maqsadlariga qarab tanlanadi.

Pedagogik jarayonda ta'lim dasturlari haqida bir qancha fikrlar mavjud. "Dastur" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, bo'lajak voqealar va harakatlarning komponenti bo'lib, barcha ta'lim jarayonining ishtirokchilarini ta'lim faoliyatining mazmuni va rejalashtirilgan natijalari haqida xabardor etish vazifasini bajaradi hamda ta'lim jarayonini rejalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quv dasturining maqomi, darajasi, strukturasi va boshqa parametrlari to'g'risida yuqoridagi huquqiy va qomusiy manbalarga asoslanib, yana quyidagilarni ilova qilish mumkin:

O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. O'quv dasturi, asosan, uch qismdan iborat bo'lishi belgilab qo'yilgan bo'lib, ular

-o'z mazmuniga ko'ra uqtirish (anglatish) xati;

-tegishli o'quv fani mazmun-mundarijasining muxtasar bayoni;

-ta'lim oluvchilar BMK (bilim, malaka va ko'nikmalari)ga qo'yiladigan talablardan iboratdir.

Ta'lim jarayonida o'quv dasturlari quyidagilarga yo'naltirilishi mumkin:

-ta'lim oluvchida kognitiv faoliyatning asosi sifatida qiziqishni rivojlantirish;

-o'quvchining qobiliyatini hamda ijodiy tasavvurini shakllantirish;

-o'quvchida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dasturlar quyidagilarni ta'minlashi kerak:

-o'quvchining jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish mustahkamlash va rivojlantirish;

-har bir shaxsning hissiy farovonligi;

-o'quvchining intellektual rivojlanishi;

-o'quvchi shaxsiyatini, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

-ta’lim oluvchini umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

-ta’lim oluvchini har tomonlama rivojlantirish uchun ijtimoiy hamkorlik ishlari.

Shunday qilib, pedagogik jarayonda ta’limning maqsad, vazifasi, ustuvor yo‘nalishlarni, jamoalar tarkibi, shuningdek, ta’limni rivojlantirish muhiti uchun mos va muqobil dasturlarni tanlash yoki ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quv dasturida tegishli o‘quv fanining maqsad va vazifalari belgilab beriladi va mazkur xususiyat o‘quv dasturining muhim belgisi hisoblanadi. O‘quv dasturida muayyan fan maqsad va vazifalarining aniq belgilab berilishi ta’lim jarayonining sifatini oshirishiga zamin yaratadigan ikkita muhim vazifa bajarilishidagi mahsuldorlikni ta’minlaydi:

1. O‘qituvchi o‘rganilayotgan o‘quv fani uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, har bir mavzu uchun qo‘shimcha adabiyotlar va manbalarni oldindan tanlab olish imkoniga ega bo‘ladi

2.O‘qituvchiga o‘quv fani doirasidagi muayyan mavzu bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishning shakl, usul, metod va vositalarini tanlashida samaradorlikka erishishi uchun asos vazifasini bajaradi. **[1; 21-b.]**

O‘quv dasturlarida an'anaviy tajriba va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarning uyg‘unligi o‘z aksini topadi, binobarin, mazkur hujjatni ishlab chiqishda ta’limdagi an'anaviylikni hamda pedagogik innovatsiyalarning joriy etilish shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiruvchi bir qator tamoyillarga amal qilinadi.

Respublikamiz ta’lim tizimida o‘quv dasturini ishlab chiqishning markazlashgan va tizimli usullari mavjud bo‘lib, markazlashgan usulda yaratilgan o‘quv dasturida ta’limning mazmun-mundarijasini tahsilning (yoki o‘qitishning) navbatdagi bosqichlarida mukammalroq tavsifda takrorlanishi nazarda tutiladi (masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan o‘quv fanlari uchun ishlab chiqiladigan dasturlar). Tizimli usulda ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘quv fanining strukturaviy tarkibini hosil qiluvchi o‘quv materiallari “osondan – murakkabga” tartibi asosida joylashtirib chiqiladi. Ta’lim jarayonidagi sifat va samaradorlikka erishish ko‘p hollarda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish usullariga ham bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘quv dasturi hujjat hisoblanadi va o‘zida ta’limning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga va shaxsiga qo‘yiladigan talablarga (aytish kerakki, mazkur talablar yangilangan ta’lim paradigmalari asosida shakllangan ijtimoiy buyurtmalar va davlat tomonidan belgilangan me'yorlardan tarkib topadi) muvofiq keluvchi mazmun-mundarijasini va bu mazmunni ta’lim oluvchilar tomonidan zarur darajada o‘zlashtirilishini ta’min etuvchi usullar, metodlar, shakllar va vositalar majmuasini o‘zida mujassam etadi.

O‘quv dasturi ta’lim maqsadi va ta’limga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi:

1. Nisbatan qisqa vaqt kesimi ichida o‘quv faniga oid maksimum ko‘p ma’lumot berish va BMK hosil qilish.

2. Talabalarda kognitiv faoliyatga qiziqishni orttirib, ularning o‘quv-bilish sifatlarini, kommunikativ muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijodiy-kreativ potensialini yuzaga chiqarish. [**1; 22-b**].

Zamonaviy ta’limda o‘quv dasturlarining variativ, mintaqaviy (yoki lokal), asosiy va qo‘shimcha, kompleks, parsial va ishchi, mualliflik va eksperemental, integratsiyalashgan, modulli, elektron va raqamli, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish o‘quv dasturlari kabi turlari qo‘llaniladi

Variativ o‘quv dasturi – bu ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarga turli xil o‘quv yo‘nalishlari va metodlari orqali bilimlarni egallash imkoniyatini taqdim etadigan o‘quv dasturi turidir. Variativ dastur ta’lim

Sifatli ta’lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ


www.xabarnoma.terdpi.uz

oluvchilarga o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab, turli variantlardan birini tanlash imkonini beradi. Variativ dasturning o‘ziga xosligi ta’lim oluvchilarni individual ehtiyojlar va qobiliyatlar asosida o‘qitish, ular uchun eng samarali bo‘lgan o‘quv variantlarini taqdim etadi.

Ta’lim oluvchilarga turli yo‘llar va yondashuvlar orqali bilim olish imkoniyatini berish, bu ularning ijodiy fikrlashini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Umuman olganda, variativ dastur o‘quvchilarga ta’limni individuallashtirish, ularni har tomonlama rivojlantirish va o‘z qiziqishlari bo‘yicha chuqurroq bilim olish imkoniyatini taqdim etadi. Quyidagi 1-jadvalda variativ dasturning o‘ziga xosligi keltirilgan.

1-jadval

Variativ o‘quv dasturining o‘ziga xos xususiyatlari



Asosiy dasturlari (yoki umumiy ta’lim dasturi) ta’lim oluvchilarga umumiy bilim va ko‘nikmalarni egallashni ta’minlashga qaratilgan rasmiy ta’lim tizimi doirasida ishlab chiqilgan o‘quv dasturidir. Bu dastur ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiyani inobatga olgan holda asosiy bilimlarini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Asosiy ta’lim dasturi davlat tomonidan tasdiqlanadi va ta’limning barcha bosqichlarida bir xil talablar va mezonlarga

Qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshirish asosida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini (pullik, bepul) taqdim etish faqat ota-onalarning (ularning qonuniy vakillarining) ehtiyojiga binoan, ular bilan rioya qilinadi. Dastur zamon talablariga javob beradigan, ilg‘or ilmiy-nazariy yondashuvlar va yangi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘quv dasturi bosqichma-bosqich bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, har bir keyingi bosqich oldingisiga tayangan holda o‘rganiladi. Asosiy ta’lim dasturi ta’lim oluvchilarga bilimlarni asosli va keng qamrovli tarzda o‘rgatishni, ularning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga imkon yaratishni maqsad qiladi. shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi. Qo‘shimcha ta’lim dasturlari ta’lim oluvchining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida tashkil etiladi. (ijodiy studiyalarda, to‘garaklarda, seksiyalarda va hokazolarda)

Qo‘shimcha dasturlarga turli ta’limy yo‘nalishlaridagi dasturlar kiradi:

-badiiy va estetik;
-etnik-madaniy;
-intellektual rivojlanish
-kommunikativ va nutq;
-atrof–muhit va ekologik;
-sport va fitnes;
-korreksiyaning turli yo‘nalishlari va boshqalar.

Qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rstish doirsida olib boriladigan mashg‘ulotlar soni va davomiyligi belgilangan me’yorlar bilan tartibga solinadi.

Lokal (mintaqaviy, hududiy) dasturlari - ta’lim oluvchilarni mintaqaviy, hududiy yoki mahalliy xususiyatlarga mos ravishda o‘qitishga qaratilgan o‘quv dasturlari bo‘lib, o‘sha hududning iqtisodiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy sharoitlariga asoslangan bilim va ko‘nikmalarni taqdim etadi. Bunday dasturlar ta’lim tizimi ichida mintaqaning o‘ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olishni maqsad qiladi. Lokal dasturlar o‘quvchilarga nafaqat o‘quv bilimlari, balki o‘z mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlarini va imkoniyatlarini tushunib yetish imkoniyatini beradi, bu esa o‘z navbatida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kompleks dasturlar — bu ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarga bir nechta fanlar yoki sohalar bo‘yicha keng qamrovli bilimlarni taqdim etishga mo‘ljallangan o‘quv dasturlari hisoblanadi. Ular ko‘pincha turli yo‘nalishlar va faoliyatlarni birlashtirib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu dastur ta’lim oluvchilarga turli fanlar yoki sohalarda umumiy va maxsus bilimlarni birlashtirib o‘rganish imkoniyatini beradi.

Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarni jamoada ishlash, liderlik, muloqot va ijtimoiy mas'uliyatga o‘rgatishda ushbu dasturning o`rni beqiyos. Kompleks dastur bir nechta fanlarni yoki sohalarni integratsiya qilib, ularni bir butunlikda o‘rganishga imkon yaratadi. Masalan, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar va texnologiyalarni birlashtirish orqali tajribaviy o‘quv metodlari rivojlantiriladi.

Kompleks dasturlar ta’lim jarayonida ko‘p tarmoqli bilimlarni birlashtirib, o‘quvchilarda keng qamrovli ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu ularni turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Ishchi dasturlar-DTS talablarini mahalliy sharoitlar, mintaqaviy qadriyatlar, hududga xos sharoitlar, ta’lim oluvchilarning xususiyatlari va boshqa faktorlarni hisobga olgan holda to‘laqonli bajarishga qaratiladi Ishchi dasturlar ko‘pincha amaliyotga asoslangan bo‘lib, talabaning kelajak potensialini tayyorlashni maqsad qiladi. Ishchi dasturlar o‘quvchilarga amaliy va professionallikni o‘rgatish bilan birga, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga muvaffaqiyatli boshlashlari uchun zarur bo‘lgan barcha ko‘nikmalarni berishga qaratilgan dastur hisoblanadi.

Mualliflik va eksperimental dasturlar – pedagoglar yoki ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan, tajriba tariqasida qo‘llaniladigan dasturlar. Mualliflik va eksperimental o‘quv dasturlari ta’lim jarayonida yangi usullarni, pedagogik yondashuvlarni va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga yo‘naltirilgan.

Mualliflar o‘zlarining innovatsion fikrlarini, metodikalarini ta’lim jarayoniga kiritadilar va yangi pedagogik texnologiyalarni, o‘quv metodlarini yoki dasturiy ta’minotlarni sinovdan o‘tkazish maqsadida amaliyotga tadbiq qilinadi. Mualliflik va eksperimental dasturlar ta’lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratib, o‘quvchilar va pedagoglarning ishlash usullarini samarali ravishda yangilashga yordam beradi.

Integratsiyalashgan dasturlar – turli fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatishga mo‘ljallangan dasturlar. Integratsiyalashgan

o‘quv dasturlari ta’lim oluvchilarga bir nechta fanlarni birgalikda o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Integratsiyalashgan dasturlar bir nechta fanlarni o‘zaro bog‘liq tarzda o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Integratsiyalashgan yondashuv ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlash va muammoni turli nuqtai nazarlardan ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu dasturlar ko‘pincha amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi hamda ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa o‘z navbatida ta’lim samaradorligini oshiradi.

Modulli o‘quv dasturlari – bilimlarni bosqichma-bosqich (modul shaklida) o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan dasturlar. Har bir modul mustaqil o‘rganish birligi sifatida ajratilgan bo‘lib, ularning ketma-ketligi talabalarga malaka va bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga yordam beradi.

Modulli dasturlar o‘quvchilarga bir mavzuni yoki fanni kichik, aniq bo‘laklarga ajratib o‘rganish imkonini beradi. Bu o‘rganish jarayonini osonlashtiradi va har bir modulni alohida o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Har bir modulning oxirida talaba o‘zining bilim darajasini baholashi mumkin.

Modullar talabalarga har bir mavzuni chuqurroq va yanada aniqroq o‘rganishga yordam beradi, chunki har bir modul ma’lum bir masalani tahlil qilishga imkon yaratadi. Har bir modulning o‘ziga xos maqsadi bor, shuningdek, o‘quvchilar o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab modullarni tanlashlari mumkin.

Elektron va raqamli o‘quv dasturlari –bu ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutadigan o‘quv dasturlaridir. Ushbu dasturlar internet va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga masofaviy o‘qish imkoniyatini taqdim etadi, shuningdek, o‘rganishning interaktiv va innovatsion usullarini joriy etadi. Elektron dasturlar yordamida talabalarga keng qamrovli resurslar, video darslar, interaktiv mashqlar, testlar va boshqalar taqdim etiladi. Raqamli ta’lim dasturlari video darslar, onlayn konferensiyalar, simulyatsiyalar, va o‘quv materiallarini yaratish uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalanadi. Ko‘plab elektron ta’lim platformalari mobil ilovalar orqali o‘quvchilarga o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa ta’limni har qanday joyda va vaqtda olishni osonlashtiradi. Elektron va raqamli ta’lim dasturlari ta’limni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Kasbiy rivojlanish va malaka oshirish dasturlari – ma’lum bir kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha malaka oshirish uchun mo‘ljallangan dasturlar. Ushbu dastur orqali mutaxassislar o‘z kasbiy qobiliyatlarini oshirish, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va o‘z sohasida yanada muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradigan ta’lim dasturlaridir. Ushbu dasturlar ta’lim oluvchilarga o‘z mahoratlarini rivojlantirishga, yangi bilimlar olishga va o‘z sohasidagi yangiliklarni o‘rganishga imkon yaratadi.

Dasturlar, mutaxassislarning o‘z sohalaridagi yangiliklar va o‘zgarishlarga moslashishlariga yordam beradi, bu esa ularga zamon talablariga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarning o‘z sohalaridagi yuqori darajaga erishishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va tajriba olishlariga yordam beradi. Bu dasturlar odatda qisqa muddatda o‘qitiladigan bo‘lib, ta’lim oluvchilarni tezda natijaga olib keladigan amaliy bilimlar bilan ta’minlaydi.


Parsial dasturlar ta’lim jarayonining faqat bir qismini, muayyan maqsad va yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan, to‘liq o‘quv dasturini tashkil etuvchi kichikroq o‘quv birliklaridir. Bu dasturlar ko‘pincha qisman bilimlarni yoki ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarda aniq va

cheklangan mavzularni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan.

Parsial dasturlar odatda aniq bir vazifani bajarishga qaratilgan bo‘lib, ular ta’lim jarayonida to‘liq o‘quv dasturining bir qismi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Talabaning bilish potensialini yuzaga chiqarish, qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ta’lim jarayonini shakllantirish davomida muayyan bitta yo‘nalishni mukammallashtirib boradigan ta’lim dasturi hisoblanadi. Ushbu dasturlar ma’lum bir soha yoki modulni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Parsial dasturlar odatda qisqa muddatli bo‘lib, ta’lim oluvchilarga tezda o‘rganishi kerak bo‘lgan muayyan mavzu yoki ko‘nikmalarni o‘rgatishga mo‘ljallangan.

2-jadval. Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan asosiy o‘quv dasturlari va ularning xossalari

Ta’lim dasturlarining turlari	Ta’lim dasturlari maqsadi	Ta’lim dasturlari xossalari
Variativ dastur	Shaxsiylashtirilgan ta’lim	Tanlash erkinligi
Asosiy dastur	Umumiy bilim va ko‘nikmalarni egallash	Qonuniylik va rasmiylik
Qo‘shimcha dastur	Pullik va bepul ta’lim xizmatlari	Ta’lim ehtiyojini to’ldirish
Lokal (mintaqaviy) dastur	Madaniy merosni saqlash	Mahalliy resurslarni inobatga olish
Kompleks dastur	Ko‘nikmalarni integratsiya qilish	Holistik ta’lim
Ishchi dastur	Kasbiy-tajribaviy ta’lim	Qisqa muddatli va intensiv ta’lim
Mualliflik va eksperemental	Yangi pedagogik yondashuvlar	Samarali ta’lim
Integratsiyalashgan dastur	Interaktivlik va amaliyot	Fanlar aro integratsiya
Modulli dastur	O‘zini-o‘zi baholaydi	Bosqichma-bosqich o‘rganadi
Elektron va raqamli dastur	Ta’lim jarayonini zamonaviylashtiradi	Ta’lim resurslarini kengaytiradi
Kasbiy rivojlanish dasturlari	Kasbiy bilimlarni yangilaydi	Tezkor natijaga erishadi



Parsial dastur ko‘pincha biror aniq mavzuni yoki sohani o‘z ichiga oladi. Bu dasturlar odatda qisqa muddatda yakunlanadi, bu esa ta’lim oluvchilarga tezda natija olish imkoniyatini beradi. Parsial dasturlar ko‘pincha amaliy mashg‘ulotlar, testlar yoki case-studylarni o‘z ichiga oladi, bu esa talabalarga mavzuni amalda qo‘llashga imkon yaratadi. Parsial dasturlar, ayniqsa, o‘z

XULOSA. Shunday qilib, bugungi kunda uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’limning sifati va samaradorligini oshirishda, eng avvalo, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar va pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini yuksaltirish ustuvor yechim sifatida qaralmoqda, zero, faqat bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning ijodiy-metodik qobiliyatlarini tarbiyalash, kreativ potensialini yuzaga chiqarish orqali butun uzluksiz ta’lim tizimida o‘zaro uyg‘unlik, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchanlik va

rivojlantiruvchanlik xususiyatlarining barqarorligiga erishish mumkin. Ayni

vaqtda, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini sifat jihatdan talab darajasiga yetkazish uchun oliy ta’lim kasbini rivojlantirish yoki ma’lum bir sohada chuqurroq bilim olishni istagan kishilar uchun juda foydalidir. Ular ta’lim jarayonini qisqa va aniq muddatda amalga oshirishga yordam beradi.**[1; 27-b]**

Yuqorida ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan o‘quv dasturlarining xususiyatlari va alohida xossalari jadval ko‘rinishida taqdim etiladi (qarang: 2-jadval). muassasasidagi pedagogik ta’limni takomillashtirish taqozo etiladi, o‘z navbatida pedagogik ta’limni takomillashtirish uchun esa oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonini rivojlantirishdek muhim vazifani bajarish mumkin.

Yuqorida yetuk mutaxassislar va taniqli olimlarning mulohazalari hamda ta’limni rivojlantirish sohasida mamlakatimiz miqyosida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda ta’lim jarayonini takomillashtirishning eng samarali usuli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish vazifasiga ijodiy yondashuvdan iborat ekanligi asoslab berildi. Shuningdek, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, asosiy o‘quv dasturlarini muvofiqlashtirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyati spesifikasi, o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha 2021-2025- yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi." O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (PF-6171 sonli, 2021- yil 2-mart).

2.O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2020). “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim dasturlarining sifatini oshirish chora-tadbirlari.” O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi qarori (No 208, 2020 yil 25-iyun).

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). “Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5998 sonli, 2020-yil 29-aprel)

3.Sadiqov, M. (2020). “Ilmiy-pedagogik faoliyatda axborot texnologiyalarining o‘rni va uning ta’limdagi roli.” Ta’lim va axborot texnologiyalari, 7(2), 121-137.

4. R.Y.Mamajonov. “Oliy ta’limda o‘qitish sifatini oshirish muammolari” https://t.me/ares_uz 2023. 2 son. 214 bet

5. Кирилюк, Лариса Гавриловна, Елена Фадеевна Карпиевич. Программа учебного курса как путеводитель для студента и преподавателя. Минск: БГУ, 2008.-211с.

6. Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi “Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish” 112b. o‘quv qo‘llanma Termiz 2024